

OILAVIY TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLARNING ASOSIY SOTSIAL OMILLARI

Oilaviy zo‘ravonlikning ko‘p hollarda yashirin bo‘lishi va ijtimoiy me‘yorlar bilan “oqlanishi” uning yechimini yanada murakkablashtiradi. Ayollarning o‘ziga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik holatlarini oshkor qilishdan cho‘chishi, ijtimoiy bosim, iqtisodiy qaramlik yoki huquqiy himoyaning zaifligi tufayli ular ko‘pincha zo‘ravon munosabatlarni davom ettirishga majbur bo‘ladi. Shu sababli xalqaro tashkilotlar ushbu muammoni jamoatchilik ongiga olib chiqishni, profilaktik choralarni kuchaytirishni talab qilmoqda.

Oilaviy zo‘ravonlik nafaqat ayollarga, balki butun jamiyatga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollarda ruhiy tushkunlik, stress, sog‘liq buzilishlari, ishga yaroqsizlik kabi holatlar yuzaga keladi. Bu esa mehnat unumdorligining pasayishiga, sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan yuk ortishiga, bolalar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga va hattoki, suitsid (o‘z joniga qasd qilish) holatlariga olib keladi. Demak, bu muammo nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik oqibatlariga ham ega.

Oilaviy tazyiq va zo‘ravonliklarning asosiy sotsial omillarini o‘rganish — muammoni chuqur tushunish va uni samarali hal qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy asos. Sotsial omillarni aniqlashdan ko‘zlangan maqsad davlat va jamiyatga oilaviy munosabatlar va gender masalalari bo‘yicha to‘g‘ri siyosat olib borishga yordam berishdan iborat. Bu, o‘z navbatida, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Agar biz zo‘ravonlikning ildiz sabablari nima ekanini bilsak, uning kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan aniq va samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishimiz mumkin. Ya‘ni asosiy sotsial omillarni o‘rganish bizga muammoni yuzaki emas, balki chuqur va tizimli hal qilish imkonini beradi. Oilaviy tazyiq va zo‘ravonliklarning asosiy sotsial omillari:

1. Ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy muammolar. Ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, ishsizlik va daromadlar o‘rtasidagi katta tafovutlar oilaviy zo‘ravonlikka olib keluvchi asosiy omillardan biridir. Oilada iqtisodiy bosim kuchaysa, bu asabiylik, nizolar va natijada tazyiqning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, erkak kishi oila boshlig‘i sifatida o‘zini iqtisodiy jihatdan ojiz his qilsa, bu holat zo‘ravonlik orqali o‘z ustunligini ko‘rsatishga urinish sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Patriarxal ijtimoiy tuzum va gender stereotiplari. O‘zbek jamiyatida uzoq yillardan beri mavjud bo‘lgan patriarxal qadriyatlar tizimi erkaklarning ustunligi va ayollarning bo‘ysunuvchanligini normaga aylantirgan. Shu bois erkak tomonidan amalga oshirilayotgan tazyiq, ko‘pincha, “normal holat” sifatida qabul qilingan. Gender stereotiplari – ayolning faqat uy ishlariga mas‘ul ekanligi, erkakning esa “qat‘iy va kuchli” bo‘lishi haqidagi tushunchalar – zo‘ravonlikni ijtimoiy jihatdan “oqlovchi” omillardan biri.

3. Ma‘naviy-ma‘rifiy yetishmovchilik. Aholi orasida huquqiy va psixologik bilimlarning yetarli emasligi, ayniqsa, yosh oilalar o‘reasida konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etish madaniyatining rivojlanmaganligi zo‘ravonlikni kuchaytiradi. Ota-

onalar farzandlariga zo‘ravonlikni “tarbiya vositasi” sifatida ko‘rsatishadi, natijada bu model yangi avlod ongida ijtimoiy norma sifatida shakllanadi.

4. Oilaviy muhit va ijtimoiy meros. Zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan yoki shunday muhitda ulg‘aygan bolalar kelajakda shunga o‘xshash xatti-harakatlarni takrorlaydi. Bunday holatlar sotsial meros sifatida avloddan avlodga o‘tib, jamiyatda tazyiq va zo‘ravonlikning barqarorlashuviga olib keladi.

5. Migratsiya va ijtimoiy ajralish. Ish izlab xorijga ketgan erkaklar oila muhitini vaqtinchalik tark etadi, bu esa ijtimoiy bo‘shliq, ajralish xavfi va oilaviy nizolarni kuchaytiradi. Ba’zida uzoq muddatli ajralishlar turmush o‘rtoqlar orasida ishonch yo‘qolishiga, psixologik bosimlar va hatto qayta birlashganda ham jiddiy to‘qnashuvlarga olib keladi.

6. Axborot vositalarining ta’siri. Omma axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlik holatlarining “ko‘ngilochar kontent” sifatida tarqatilishi uni normaga aylantiradi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar bu holatlarni qabul qilib, o‘z ijtimoiy xatti-harakatlarida takrorlaydilar.

7. Davlat va jamoatchilik nazoratining sustligi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining zo‘ravonlik holatlariga sust munosabati, tazyiqni oqlovchi yoki e’tiborsiz qoldiruvchi yondashuvlar bu muammoning davom etishiga sabab bo‘ladi. Ayollar va bolalar huquqlari buzilgan taqdirda ham, ko‘plab holatlarda jazo muqarrarligini ta’minlanmaydi.

Xalqaro hamjamiyat oilaviy zo‘ravonlikni inson huquqlariga tahdid, ijtimoiy tengsizlik mahsuli va global taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatida baholamoqda. Shu sababdan ayollarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash xalqaro miqyosda kompleks yondashuv, xususan, huquqiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy islohotlarni talab qilmoqda. Ijtimoiy siyosat, huquqiy islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati bu muammoni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Zo‘ravonlikka faqat individual muammo sifatida emas, balki tizimli ijtimoiy muammo sifatida ko‘rish va unga nisbatan tizimli choralar ko‘rish zarur.

Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti